

Bolalar yozuvchisi

Najmiddinova Sarvara Samariddinovna

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'onasi

Mintaqaviy filialining

Annotatsiya: Quyidagi maqolada bolalar yozuvchisi Qudduz Muhammadiy misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar; Quddus Muhammadiy, ilhom, bolalar, adabiyot

Quddus Muhammadiy va uning bolalarga bag'ishlangan she'rlari, dostonlar haqida. Quddus Muhammadiyning yozgan she'rlarida go'zallik, bolalar tushunadigan darajada soddalik va oddiylik mavjud. Muhammadiy she'rlarini bolalarcha beg'uborlik bilan yozganligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa, shoir tabiatdagi g'aroyibotlar, hayvonot dunyosining sehrli sir-sinoatlari bilan bolalarni tanishtirish orqali ham ularni odobli, bilimli, rostgo'y, intiluvchan bo'lishga chorlaydi. Shuni ham aytish kerakki, bu she'rlar orqali bolalarga vatanga muhabbat, tabiatga bo'lgan qiziqish uyg'ota oladigan, o'z kasbini to'g'ri tanlashlari uchun yo'l xaritasi desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, bolalar kamoloti, tabiat, hayvonot dunyosi, vatan.

Quddus Muhammadiy butun umrini, ijodini kichkintoylarning katta adabiyotiga bag`ishladi. Uning ijodi nihoyatda serqirra, mahsuldor, bolalar dunyosiga xos va mosdir.

She'r yo'lin o'rgatgan quyoshim, oyim, Kunduzim, yulduzim, ilhomim, so'zim, Shu Vatan, shu xalqim, shu o`gil-qizim, She'rimning asosiy mavzui sizlar. Asarim ovozi – parvozi sizlar,

O`zingiz ilhomim oltin o`zagi,

O`zingiz she'rimning husn-bezag'i,

Chunki siz men uchun, men-chi siz uchun...

Haqiqatan ham shoir she'rlarining mavzui bepayon Vatani, uning mehnatsevar xalqi, shirin “o'g'il-qizlari”dir, asarlarining ovozi ham, “parvozi” ham, “ilhom”ning “oltin o'zagi”, she'rining “husn – bezagi” ham shulardir.

Shoir o`z asarlarida bolalarining yurak tuyg`ularini, orzu va intilishlarini, o`qishdagi yutuqlarini aks ettirish bilan birga, ulardagi kamchiliklarni qoralaydi, uni yo`qotish yo`llarini izlaydi, topadi, o`z o`quvchisiga talabchan o`rtoq, qattiq qo`l ustoz sifatida yo`l ko`rsatadi.

O'zbek bolalar she'riyatining taniqli siymolaridan biri Quddus Muhammadiy 1907-yilda Toshkent shahrida tug'ildi. Bo'lajak shoirning otasi Muhammad Alibek Abdurahmonbekov savodli kishi edi. U dastlabki ma'lumotni o'z otasidan oladi. 1925-yilda otasi vafot etgach, Quddus Muhammadiy avval amakisi xonadonida, so'ngra esa maktab-internatda tahsil oladi. U yetti yillik maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent qishloq xo'jalik bilim yurtiga o'qishga kiradi. Shu davrdan boshlab u bolalar uchun she'rlar yoza boshlaydi. Bolalar uyi va universitetdagi hayot, mehribon murabbiy va muallimlarning g'amxo'rliklari Quddus Muhammadiy qalbida bir umr o'chmas iz qoldirdi. Uning ijodi 30-yillardan boshlangan bolib, dastavval «Sharq haqiqati» ro'znomasi va «Yer yuzi» oynomalarida chop etildi. Uning mashhur «Sandal va pechka», «O'z-o'zini tanqid» kabi dostonlari 1936-1937 yillarda yaratildi. Unda eskilik bilan yangilik, eski urf-odatlar bilan yangicha urf-odatlar qiyosiy tarzda o'zining poetik ifodasini topdi. Hayotdagi kishilar, xususan, bolalar xarakteridagi ayrim nuqsonlar beg'araz hajv qilindi. Quddus Muhammadiy faqat bolalar shoirigina emas, bolalar adabiyotining tadqiqotchisi, jonkuyari va targ'ibotchisi sifatida ham o'nlab maqolalar yozdi. Xususan uning «Bolalar adabiyotining yanada ravnaqi uchun», «Bolalar adabiyotini o'rganaylik», «Ilhom bilan» kabi maqolalari shular jumlasidandir. Quddus Muhammadiy xoh shoir, xoh tadqiqotchi, xoh tarjimon sifatida faoliyat ko'rsatmasin, hamisha hamma o'rinda bolalar kelajagi, kamoloti, ma'naviy shakllanishi haqida qayg'urdi.

References

1. Sh. Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent - “O‘zbekiston”-2016.
2. Imom Ismoil Al-Buxoriy. AL-ADAB AL-MUFRAD” (Adab durdonalari) Toshkent. “O‘zbekiston”-1990.
3. Imom Ismoil Al-Buxoriy. “Al-jome’ as-sahih”. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent-1997.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Hadis va Hayot”. Hilol nashr-2019.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Oltin Silsila” Sahihul Buxoriy. T.: 2015 y.
6. Uvatov U. Donolardan saboqlar. –T.:1994.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. Imom Al-Buxoriyning “Al-Adab Al-Mufrad” kitobining sharxi -T.: 2021 y. 1-juzi, 122-bob